



Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash

Mirzayev Mutalib Jo'rayevich –

Termiz davlat universiteti

Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasini mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E-mail: mirzayev@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-1928-7368>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik muammolari. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning metodik sharoitlari, tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash bo'yicha malaka talablari haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, kasb, individuallik, ta'lim, tarbiya, mexanizm, modul, texnologiya, mutaxassislar, moderatorlik, supervayzerlik, yangilik, yangi.

Подготовка будущих учителей к профессиональной деятельности на основе инновационного подхода

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются содержание, особенности и педагогические проблемы подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности на основе инновационного подхода. Также освещены методические условия подготовки будущих учителей к воспитательной деятельности, квалификационные требования к подготовке к воспитательной деятельности.*

***Ключевые слова:** Инновация, профессия, индивидуальность, образование, воспитание, механизм, модуль, технология, специалисты, модераторство, супервайзерство, новост, новый.*

Training future teachers for professional activity based on an innovative approach

***Annotation.** This article examines the content, specific features, and pedagogical problems of preparing future teachers for professional activity based on an innovative approach. Information is also provided on the methodological conditions for preparing future teachers for educational activities, qualification requirements for preparing for educational activities.*

***Keywords:** Innovation, profession, individuality, education, upbringing, mechanism, module, technology, specialists, moderation, supervision, novelty, new.*

KIRISH

Jahon amaliyotida ta'lim mazmunini standartlashtirish bilan bog'liqlikda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni jadal o'zgartirishlar kiritishni talab etmoqda. Ta'lim muhitini loyihalashtirish, individuallashtirish, tabaqalashtirish, kasbiy yo'naltirish, qo'shimcha ta'lim dasturlari asosida ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish yo'llarini erkin tanlash imkoniyatini yaratib beruvchi o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni samaradorligini oshirish texnologiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan (modulli texnologiyalarni ishlab chiqish, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy bilimlarni oshirish, moderatorlik va supervayzerlik qobiliyatlari, tizimli tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va mohirona munozara olib borish mahoratini rivojlantirish kabi) ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni samaradorligini oshirish texnologiyalari sohasida ilmiypedagogik modullarini joriy etish, milliy malaka talablarini ishlab chiqish hamda ularni turli darajadagi milliy ta'lim tizimlari bilan uyg'unlashtirish muhim vazifa sifatida belgilangan. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifa etib belgilandi. Xususan, uzluksiz ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bo'lajak o'qituvchining tarbiyaviy faoliyatga tayyorligi – bu tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga doir nazariy bilimlarni egallaganlik hamda mazkur faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarni o'zlashtirganlikdir.

Tadqiqotda innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga doir tadqiqotlar N.A.Muslimov, O.A.Qo'ysinov, N.N.Djamilova, G.N.Ibragimovalarning ilmiy ishlari o'rganildi. Mamlakatimiz oliy ta'limida xalqaro yetakchi tajribalarni hisobga olgan holda bo'lajak o'qituvchilarini innovatsion yondashuv asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish sifatini oshirish, professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini ko'tarish, ta'limda texnologiyalar, innovatsion yondashuvdan foydalanish dunyo ta'limida munosib o'ringa ega ekanligini hisobga olib, bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlari tahlil etildi va quyidagi muammolar:

-birinchidan, bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash muhiti, uni tashkil etish usullari, vositalari va jarayonlarini to'liq tushunib yetmasliklari;

-ikkinchidan, bo'lajak o'qituvchilarida innovatsiya, innovatsiyaning dispersiv xususiyati: pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi, pedagogik va tarbiyaviy faoliyatga doir bilimlar integratsiyasi, innovatsion yondashuv asosida auditoriya, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar hamda pedagogik amaliyot jarayonlarini tashkil etish texnologiyalari haqidagi tasavvurlarning yetarli darajada emasligi;

-uchinchidan, esa, bo'lajak o'qituvchilarning kelgusi pedagogik faoliyatlarida innovatsion yondashuv, tarbiyaviy faoliyat va uni tashkil etishning dispersiv xususiyatini ochib beruvchi metodik ishlanmalarning yetishmasligi kabi muammolarning mavjudligi aniqlandi.

Ishda bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga doir tadqiqotlar tahlilining natijalariga ko'ra quyidagi: shaxsga yo'naltirilgan, texnologik, qadriyatga asoslangan, kompetensiyaviy hamda innovatsion yondashuvlar ahamiyatli deb topildi. SHu ma'noda, dissertatsiyada "innovatsiya" tushunchasiga berilgan ta'riflar o'rganilib, ularning xilma-xilligi, jumladan, N.Muslimovning innovatsiya jarayonga yangilik olib kirishi, G.M.Kodjaspirova va A.Yu.Kodjaspirovlarning "yangilik, yangi tartib- qoidalar", M.M.Potashnik, O.G.Xomerikilarning "yangi – yangilik", "innovatsiya – yangilik kiritish" so'zlarining sinonimi deb qaralganligi aniqlandi. Bizningcha, "innovatsiya" bu g'oya bo'lib, uning natijasi foydalanishga kiritilgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot yoki jarayondir.

Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda innovatsion yondashuv bu – bo'lajak o'qituvchilarda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish madaniyatini rivojlantirish (ularda tarbiyaviy faoliyat maqsadi, mazmuni, mohiyati va ularning o'zaro bog'liqligi haqida adekvat tasavvurlar shakllantirish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish bo'yicha asosli mulohazalar yuritish, ma'lum bir tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyat jarayonidagi vaziyatlarni tahlil etish malakasini rivojlantirish, amaliy tajribasini orttirish); Yangi O'zbekiston quruvchilarini mamlakatimizda bo'layotgan startegik o'zgarishlarga ijtimoiy moslashuvi va unda to'g'ri yo'l tanlash, qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish, shu bilan birga ular uchun kelajakda kerak bo'ladigan zaruriy tayanch kompetensiyaviy bilimlarini oshirish; ularda ma'lum bir hayotiy vaziyatlarda to'g'ri tanlovni amalga oshirish, qaror chiqara olish bo'yicha amaliy ko'nikmalar shakllantirish; o'z-o'zini tarbiyalash, tashabbuskor va faol hayot tarziga o'rgatishdan iborat.

Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash bo'yicha malaka talablari bosqich va semestrlar kesimida aniqlangan. Unga ko'ra, 1bosqichda 1-2 semestr mobaynida bo'lajak o'qituvchilar tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga oid tushuncha va bilimlarni o'zlashtirishlari natijasida tarbiyaviy faoliyat mazmuni, ichki va tashqi siyosat, huquq, din

sohalaridagi muammolarni aniqlashga qodirlik, maqsad va ishonch bilan yashashga intilish hamda tarbiyaviy faoliyatga oid bilim zarurligi kabi bilimlarni o'zlashtiradilar.

2 - bosqich 3-4 semestr mobaynida bo'lajak o'qituvchilar muloqotlar natijasida tarbiyaiy faoliyat mazmuni, sir – asrorlarini o'rganishga intilishlari, tarbiyachilik ishiga sadoqat, zamon talablariga mos holda mushohada yuritish, tarbiyaviy faoliyani amalga oshirish zaruriyatini anglash bilan birga uning mazmun-mohiyatini teran tushunish hamda unga yondoshish imkoniyatlarini o'zlashtiradilar.

3-bosqich, 5-6 semestr mobaynida bo'lajak o'qituvchilar axloqsizlikka murosasiz bo'lish, mantiqiy va sog'lom fikrlash, axloqiy e'tiqodni mustahkamlash, axloqiy madaniyatni sog'lomlashtirish va muomala madaniyatini egallashi hamda 4-bosqich 7-8 semestr mobaynida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga tayyor mutaxassis dunyoqarashining shakllanishi; fikrni jamlash, mantiqiy fikrlash, xulosa chiqarish va himoya qilish mahoratiga egalik, liderlik qobiliyatlarisha ega bo'lishi aniqlangan.

bo'lajak o'qituvchilar “tarbiya”, “tarbiyaviy ish”, “tarbiyaviy faoliyat” unga tayyorlik kabi tushunchalarga doir qanday bilimga ega ekanliklari o'rganilib, tarbiyaviy faoliyatga tayyorlik tushunchasi mohiyatini anglashlariga ko'ra quyidagi uch guruhga ajratdik:

1-guruh respondentlari tarbiyaviy faoliyat mavjud sharoitning o'zgarishiga qaramay, pedagoglar tomonidan boshqariladigan, o'quvchilarni tarbiyalash tizimini o'zlashtirish jarayoni deb ta'rifladilar.

2-guruhga kirgan respondentlar tarbiyaviy faoliyat natijasida shaxsning:

“tarbiyaviy faoliyatlarni tashkil qilish texnikasiga egalik”, “tarbiyaviy faoliyatda layoqatlilik”, “tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilish yo'llarini o'zlashtirganlik”, “tarbiyaviy faoliyatni tashkil qila oluvchi mutaxassis” kabi maqomga ega tarzida tasnifladilar.

3-guruh respondentlari esa lozim bo'lgan bilimlar doirasiga faoliyatni tashkil qilishga oid mahorat ko'rinishlari – pedagogik qobiliyat, mahorat, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil qilishning kompetentligi kabi tushunchalar bilan ifodaladilar.

Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish tamoyillari ham aniqlashtirildi. Bu jarayonda A.M.Kuzminning tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga oid tarbiyaviy faoliyat turlarini tashkil etishda ixtiyoriylik; tarbiyaviy faoliyat jarayonining kasb tanlash ishlariga yo'naltirilishi; didaktikaning tizimlilik, uzviyligi va boshqa shu kabi o'ziga xos tamoiylariga tayangan holda quyidagi: ijodkorlik; tabiiylik; tarbiyaviy faoliyat mobaynida bo'lajak o'qituvchilar o'zlashtiradigan bilim va ko'nikmalar, ong va xulq-atvor uyg'unligi tamoyili; tarbiyaning uzluksizligi; tarbiyaviy faoliyatning bir butunligi va izchilligi hamda ma'naviy hamkorlik tamoyillar samarali deb topildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning metodik sharoitlari: ta'lim oluvchining har tomonlama erkin rivojlanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitni yaratish, tabiiy imkoniyatlarni amalga oshirish, shaxsning maqsadi, qiziqishlari, qarashlari, munosabatlarini tan olish, kuchi va imkoniyatlariga ishonish; ta'lim-tarbiya berish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojni vujudga keltirish, ularning erkin fikr, mushohada yuritish, to'g'ri xulosalar chiqara olish xususiyatlarini nazarda tutish; bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashni yillik, mavsumiy ish emas, balki, davlat ahamiyatiga molik bo'lgan integral jarayon sifatida tushunish, tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonini ilmiy-texnologik asosda boshqarishning samarali imkoniyatlarini yaratish.

O'qitish va rivojlanish hayotiy ehtiyojga aylanadigan ta'limiy maqsadni amalga oshirish orqali ta'limning hayotiy zarur ekanligini anglashligini ta'minlash; pedagog vazifasining o'zgarishi: ta'lim jarayonida bilim va tarbiya ishini tizimli holda uyushtirilishi, bo'lajak o'qituvchilarning analiz, sintez, ijodiy mushohada qilish, taqqoslash, o'zlashtirilgan

bilimlarini amaliyotga joriy etish, uni innovatsiyalar bilan boyitish hamda takomillashtirish kabilar ekanligi aniqlandi.

Hozirgi zamon ilmiy tadqiqot ishlarida pedagogik tizim tuzilishini ob'ektning ichki va tashqi aloqalarini tartiblash hamda uning aniqligi, barqarorligi sifatlarini aks ettiruvchi murakkab bir butun elementning integrallashning nisbatan barqaror usuli sifatida bayon etish talab etilmoqda. Shu ma'noda, tadqiqotda o'z ichiga malaka, ko'nikma va bilimlardan tashkil topgan kompetensiyalar mazmuni aniqlashtirildi va tizimlashtirildi. Keltirilgan kompetensiyalar mazmunini o'zaro bog'liqlikda ta'limiytarbiyaviy jarayonlarga tatbiq etish bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonlarining natijadorligiga ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning tashqi formal va didaktik xususiyatlariga asoslangan tasnifiy parametrlarining didaktik, tashkiliy-boshqaruv va metodik ta'minoti bilan bog'liq shart-sharoitlari tahlilida kasbiy tayyorgarlik muvaffaqiyatini ta'minlovchi quyidagi ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish zarur degan fikr ilgari surildi: shaxs sifatida o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi – doimiy ravishda o'zini-o'zi jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallash; ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi – jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish, ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burchi va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala hamda huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatini rivojlantirish; milliy va umummadaniy kompetensiya – Vatanga sadoqatli, mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish hamda sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatini rivojlantirish.

Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorgarligida kreativ, praksikologik, texnologik tashkilotchilik komponentlari samarali ekanligi aniqlandi.

Kreativlik komponenti bo'lajak o'qituvchining innovatsion faoliyatining ijodiy xususiyatini belgilab, innovatsion jarayonning ma'lum bosqichlarida o'zini namoyon qiladigan ijodkorlikka asoslansa, praksikologik komponent tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga bo'lgan ijobiy munosabat haqida to'liq va yetarli qarashlarga egalik, tarbiyaviy faoliyatning natijadorligini oshirishga yordam berib, mutaxassisning mazkur faoliyatga tayyorgarligining nazariy hamda amaliy jihatlarini o'z ichiga oladi. Tarbiyaviy faoliyatda texnologik komponent ijodkorlik, pedagogik texnologiya darajasi bo'yicha texnologiyaviylik, samarali vositalarni tanlash bo'yicha optimallik, natija bo'yicha mahsulдорlikka tayanadi.

Tashkilotchilik komponenti bo'lajak o'qituvchining tarbiyaviy faoliyatini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etishning tashkiliy masalalarini hal etishda ko'rinadi. Bu komponentlarning barchasi birlik va o'zaro bog'liqlikda ish ko'rganda samarali bo'ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tarbiyaviy faoliyatga innovatsiyalarni joriy qilishda uni tarbiya jarayonlarining barcha komponentlari: mazmuni, maqsadi, vositalari, metodlari hamda natijalariga tegishli ekanligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval.

**Tarbiyaviy faoliyatga innovatsiyalarni joriy etishning
konseptual asoslari**

Tarbiyaviy faoliyat maqsadi	Modernizatsiyalashgan ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi asoslari
Tarbiyaviy faoliyat mazmuni	Pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi turli mutaxassisliklarning alohida ta'lim turida, xususan, umumiy pedagogika fanining tarbiya nazariyasi bo'limi boblarida mavzu materiallarining ayrim qismlarini o'zidan oldingisiga nisbatan – yangi dastur, dasturni takomillashtiruvchi, o'quv materialini to'ldiruvchi, paydo bo'lishiga ko'ra – me'yoriy hujjatlar o'zgarishi asosida rejali tarzda takomillashtirish va tubdan o'zgartirish
Tarbiyaviy faoliyat metodlari	Oliy pedagogik ta'limning alohida tarbiya turida, ayrim fan, mavzu, bo'lim, bob, tarbiyaviy faoliyat shakli va turida ma'lum uslubiyot elementlarini innovatsion ko'rinishda ishlab chiqish, oldingisiga nisbatan – takomillashtiruvchi, yangi, o'rnini almashtiruvchi, to'ldiruvchi, paydo bo'lishiga ko'ra – rejali, oldindan o'ylangan, yangi talablar asosida takomillashtirish va tubdan o'zgartirish
Tarbiyaviy faoliyat vositalari	Miqyosiga ko'ra – ommaviy, yakka, kompleks, tizimli, uzluksiz ta'limning alohida tarbiyaviy faoliyat turi, ayrim tadbirlar va o'zidan oldingisiga nisbatan – eskisini almashtiruvchi, o'rnini almashtiruvchi yangi texnologiya, darajasiga ko'ra – modernizatsiyalashgan, ma'lum vosita elementlari yangicha talqinda ishlab chiqilgan, tubdan o'zgartirilgan, paydo bo'lishiga ko'ra – rejali, oldindan o'ylangan tarbiyaviy tadbirning ma'lum bir qismida ayrim bosqichlarini shakllantirish
Tarbiyaviy faoliyat natijasi	O'qituvchining faoliyatida – novatorlik, bo'lajak o'qituvchilar faoliyatida – aniq maqsadga intiluvchi, erkin, ta'lim jarayonining faol subyekti

Mazkur jadval asosida tarbiyaviy faoliyatga innovatsiyalarni joriy qilish uning barcha komponentlariga: mazmuni, maqsadi, vositalari, metodlari hamda natijalariga tegishli ekanligi. Shuningdek tarbiyaviy faoliyatga innovatsiyalarni joriy qilish sifatli natijani kafolatlashini tasdiqladi. Tarbiyaviy faoliyatga innovatsiyalarni joriy qilishda tarbiya jarayonlarining barcha jabhalaridagi o'zgarish, yangilanish mazkur faoliyatni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi, jarayon natijasining samaradorligini ortishiga xizmat qiladi. Ushbu jarayon innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish jarayonini loyihalash va uni amalga oshirishni talab etadi. Shuningdek, innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda tarbiyaviy faoliyatni ta'minlashga xizmat qiluvchi "Fikrlarning uzluksiz estafetasi", "Dunyoqarashlarni shakllantirish", "O'z-o'zini rag'batlantirish", "Rollar taqsimoti", "O'qituvchining o'z ustida ishlashi" usullari, "Rollar almashinuvi" quyidagi samarali usullar qo'llanildi. usullar qo'llanilib, bu jarayonda o'zaro munosabatlardagi professional pozitsiyalar o'zgarishi tavsiflandi hamda ushbu usullar qo'llanilganda o'zaro munosabatlardagi professional pozitsiyalarning o'zgarishi kuzatildi. Jumladan: "Kuzatuvchi" – bu bo'lajak o'qituvchilar jamoasining hayotini tashqi, xolis, bilvosita kuzatish.

“Maslahatchi” – bo'lajak o'qituvchilar jamoasining hayotini vaziyatli yoki tizimli kuzatish.

“Mentor” – bo'lajak o'qituvchilar hamjamiyati a'zolarining mahalliy taqsimlangan faoliyatiga, rasmiy qarorlar yoki qarorlar qabul qilish huquqisiz jalb qilish.

“Murabbiy” – bo'lajak o'qituvchilar jamoasining barcha a'zolari tomonidan qat'iy bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlarni qabul qilish huquqi.

XULOSA

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish muhimligi e'tiborga olinib, uni quyidagi to'rt bosqichda: dastlabki bosqich– tarbiyaviy faoliyat, tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishga doir asosiy ma'lumotlar berish; ikkinchi bosqich – tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga doir dolzarb masalalar muhokama qilish; uchinchi bosqich – mavjud nazariy qoidalarni bayon qilish; to'rtinchi bosqichda esa – olingan ma'lumotlarning to'g'ri o'zlashtirilganligi nazorat qilinish tarzida amalga oshirish samrali ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 yil, 6-son, 70-modda.

2.O'zbekiston respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni. O'RQ-637-son.23.09.2020. – T.:2020. – 75 b.

3.Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt tarqqiyoti va xalk farovonligining garovi.-T.: O'zbekiston, 2017. – 176 b.

4. Abdullayeva O.S.Kasb ta'limi yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlari samaradorligini oshirish texnologiyalari: p.f.b.f.d. ... (PhD) disser avtor. ... Namangan – 2018. 5 b Кузьмин

5.Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. O'quv qo'llanma – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006. – 159 b.

6.A.M. Готовность учителя к воспитанию патриотизма подростков как педагогическая проблема / А.М. Кузьмин, М.Г. Домбровская, Е.А. Сироткин // Вестник ЮУрГУ. Серия «Образование. Педагогические науки».

7.Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim pedagogikasi: nazariya va amaliyot Integratsiyasi//Xalqaro ilmiy nazariy anjuman materiallari Buxoro. – 2024.

8. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik-T.: Iqtisod-moliya, 2011. – 420 b.